

## JAMIYATNI RIVOJLANISHIDA FALSAFANING O'RNI

*Talipov Hushnud**ADPI, Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada falsafa va uning jamiyat rivojida o'rnini ko'rib chiqiladi. Falsafa insoniyatning fikrlash uslubi, hayotga bo'lgan munosabati va ma'naviy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Maqola falsafaning asosiy vazifalari va uning turli sohalarda qanday aks etishini tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Falsafa, Jamiyat, Ma'naviyat, Tahlil, Insoniyat.

**KIRISH**

Falsafa, o'zining ko'plab shakllari va yo'nalishlari bilan, insoniyat tarixida juda muhim o'rin egallaydi. U aynan bilim, haqiqat, axloq va mavjudlik haqidagi eng chuqur savollarga javob qidiradi. Falsafa insonni o'z ichki dunyosini anglashga, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga va ma'naviy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Bugungi kunda, ijtimoiy muammolar va hayotiy qiyinchiliklar zamonida, falsafaning jamiyatdagi o'rni yanada dolzarblashmoqda. Tahlil qilishdan maqsad, falsafaning turli ijtimoiy qatlamlarga, ilm-fanga va diniy e'tiqodlarga ta'sirini o'rganishdir. Falsafaning ijtimoiy o'rni Falsafa, asosan, bilish jarayonini o'rganadi va bir vaqtning o'zida axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi. Optimizm, skeptitsizm yoki utilitarizm kabi falsafiy yo'nalishlar, jamiyatda muhim rol o'ynaydi.

Falsafa orqali insonlar o'z his-tuyg'ularini, e'tiqodlarini va hayotiy qarashlarini tushunishga harakat qiladilar. Bundan tashqari, falsafa ilmiy rivojlanish va tadqiqotlarga ham ta'sir etadi. Falsafiy tahlil, ilmiy nazariyalar asosida yangi g'oyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Masalan, etika falsafasi, tibbiyot, iqtisodiyot va ekologiya kabi sohalarda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, falsafa jamiyatda muloqot va muhokamalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Falsafiy fikr almashish orqali odamlar o'z fikrlarini, qarorlarini va bahslashayotgan masalalar bo'yicha munosabatlarini yanada rivojlantiradilar. Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlaridan biridir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga hos, demak, uning o'zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandır. Olam va unda odamning o'rni muammosi hamisha qizgin baxs-munozara obyekt bo'lib kelgan. Bu muammoga ilmiy jihatdan yondashishning qaror topishida barcha mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston faylasuflarining ham xizmatlari bor. Olamni, unda odamning o'rnini falsafiy idrok etishdan avval "falsafa" va "falsafa fani" tushunchalari o'rtasidagi umumiylik va ayrimlikning farqini anglab olish muhimdir. "Falsafa" umumiy va keng tushuncha bo'lib, olam, unda odam va uning

uyushmalari (jamoalari, ijtimoiy harakatlari, partiyalari, davlatlari va x.k.)ning o‘rni, qisqasi inson omili qanday? degan savollarga har bir tarixiy davrda, mintqa va mamlakat xalqlari tafakkur va turmush tarzlaridan kelib chiqib, turlicha qarashlar mavjud bo‘lib kelgan va hozir ham shunday. Insonda tabiatan falsafiy fikrlashga moyillik kuchli. “Filosofiya atamasi yunoncha ikkita so‘z birikmasidir. (“filio” - sevaman, “sofio” - donolik) “falsafa” esa lotincha “filosofiya” so‘zining o‘zbekchalashgan shakli bo‘lib, u “donishmandlikni sevish” ma’nosini anglatadi. Nemis filosofi Gegelning fikricha, falsafa donishmandlikning o‘zidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, qo‘shiqlardan tortib, barcha dinlarning muqaddas kitoblaridagi olam, unda odamning o‘rni qanday bo‘lishi kerak, degan savolga o‘ziga xos javoblar bor. Shuning uchun qadimgi greklar barcha fanlarni falsafa, ya’ni donolik, donishmandlik ifodasi xisoblaganlar. Natijada odatiy (kundalik) ongda tarixan “falsafa – fanlar fani”, “falsafa – fanlar onasi” degan fikr keng tarqalgan. Eshitilishi jozibali va extiromli ko‘ringan bu iboralar ostida falsafani fan sifatida tan olmaslik maqsadlari yotadiki, bu bizning davrimiz uchun xatarli mayl (tendensiya)dir. Hatto olimlarning ba’zilar ana shu aqidaga tayanib, falsafa faniga munosabat belgilaydilar.

### ASOSIY QISM

O‘zbekistonda ma’naviyat milliy negizda rivojlanishi lozim va bu xol umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishi uchun kafolat bo‘ladi. Har bir millatning tarixan tarkib topgan o‘z mentaliteti va shunga muvofiq o‘ziga xos dunyo qarashi, tafakkur va turmush tarzi bo‘ladiki, bu o‘sha millatning falsafiy qarashlarida o‘z mujassamini topadi. Binobarin, milliy falsafa milliy qadriyatlar gultojisi sifatida umuminsoniy qadriyatlar majmuasi bo‘lgan falsafa faniga va falsafiy qarashlarga ters bo‘lib qolmasligi ustida gap boradi.

Turlicha falsafiy oqimlar mavjud va yana yangi oqimlar paydo bo‘laveradi. Biroq, bu oqimlarning birontasi, jumladan milliy falsafa o‘rnini egallab olishdan extiyot bo‘lish zarur. Falsafaning funksiyalarida uning fanlar tizimi va ijtimoiy hayotdagi o‘rni ravshanlashadi. Funksiya deganda harakat uslubi, falsafiy bilimlar tizimi doirasida faolligining namoyon bo‘lishi, bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarning umumiy tiplari nazarda tutiladi. Hayot va o‘lim haqida o‘ylamaydigan va yashashning cheklangani to‘grisida qaygurmeydigan, g‘am-tashvish chekmaydigan odam bo‘lmas kerak. O‘limning muqarrarligi har bir insonda salbiy xis-tuyg‘ularni yuzaga qalqitib, odamning ilik-iliklarigacha bo‘lgan quvvatni ham go‘yo sug‘irib olgandek bo‘ladi. Bu xislardan xoli bo‘lish uchun odam abadiylik to‘grisida qayg‘uradi, abadiylikka doxil bo‘lish yo‘llarini qidiradi. Shu jarayonda aql bilan bilib, tajriba yo‘li bilan sinab bo‘lmaydigan olam borligi, u bilan ruxiy aloqa bog‘lash orqali o‘lim vaximasi, hayot tushkunligi, yashashning ma’nisizligi to‘grisidagi g‘am-andux xislaridan xoli bo‘lishga intiladi, natijada inson ichki olami tashqi abadiy olam – kosmik butunlik

bilan birlashgandek bo‘ladi. Oqibatda mifologik (afsonaviy), diniy, badiiy, odatiy dunyoqarashlar vujudga kelib, ular orqali odam hayotdan qoniqish, vaximaga tushmaslik xis-tuyg‘ularini o‘zida gavdalantirmoqchi bo‘ladi. Falsafa esa insoniyat to‘plagan barcha ilmlar, tajribalarni umumlashtirib, ayrim-ayrim tarmoqlarga bo‘linib ketgan dunyo xaqidagi tasavvurlarni yig‘ib, ilm-fan dalillariga, insoniyatning abadiylik yo‘lida to‘plagan tarixiy tajribalariga tayangan ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Shuning uchun ham falsafaning moxiyati – “Odam-olam” tizimida yalpi umumiy muammolar xaqidagi fikrlarda namoyon bo‘ladi. Odam necha yil yashashi bilan emas, balki qanday yashaganligi bilan o‘z abadiylikni yarata olishiga falsafa ishontirib, inson o‘z hayotining ma’noli, mazmunli qilishiga yordamlashadi. Ilmiy falsafa odamzodni hayotbaxsh dunyoqarash egasi qilish funksiyasi orqali olam, undagi barcha munosabatlar ijtimoiy taraqqiyotga, inson barkamolligiga xizmat qilishi uchun kurashuvchilar avlodini yetishtirishga harakat qiladi. Falsafa olamni bilish metodi orqali fanlarga nisbatan evristik, uygunlashtirish, birlashtiruvchilik, mantiqiygnoseologik (bilishga oid) kabi funksiyalarni ham bajaradi. Bu, uning metodologik funksiyasi bo‘lib, barcha fanlarga doir murakkab nazariy va fundamental muammolarni xal etishga yordamlashadi. Har bir elat, millat oldida muayyan tarixiy davrda paydo bo‘ladigan muammolar, falsafiy taxlil, falsafiy qarashlar yo‘li bilan xal etib kelingan va shunday bo‘lib qolaveradi. Ular ichida odamning umuman olamga munosabati muamosi – dunyoqarash eng muximi hisoblanadi. Moddiy va ruxiy olam o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, tabiat va jamiyat qonunlari haqiqatan ham mavjudmi, yoki odamzot tartib-qoidaga bo‘lgan ehtiyoji tufayli uni o‘ylab topganmi, odam nima va olamdagi, ya’ni umumiy aloqadorliklar ichida uning o‘rni qanday – u yaratuvchimi yoki buzuvchi qudratmi, inson aql-zakovatining tabiati nima, odam o‘zini qurshab olgan olamni va o‘z-o‘zini bila oladimi, xaqiqat va adashish deganda nima anglashiladi, ezgulik va yovuzlik nima, qanday qonuniyatlar va qanday yo‘nalishlar insoniyat tarixini harakatga keltiradi kabi dunyoqarash bilan bog‘lanib ketgan muamolarni anglash, ularni xal etish orqali olamda o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lish har bir odamda olamiy fikrlash qobiliyatini vujudga keltiradi. Tabiat o‘z taraqqiyotining Noosfera – Aql sohasi bosqichiga o‘tganligi munosabati bilan Ona-tabiatni muqarrar halokatdan saqlab qolish muammosi fan-texnika va axborot texnologiyalaridan umumbashariy manfaatlar yo‘lida foydalanish usullarini izlash va topish falsafa fani oldiga yangi katta vazifalarni ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

### XULOSA

Mustaqillikgacha falsafa ana shu prinsip belgilovchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Insonlarning jamiyatdagi siyosiy munosabatlari ham iqtisodiy munosabatlari singari o‘ziga xos reallikdir. Madaniyat ijtimoiy-ma’naviy hodisa bo‘lib, u ham moddiy ishlab chiqarish kabi real mavjuddir. Ijtimoiy turmush (sotsial voqelikning boshqa elementlari singari) ongdan mustaqil holda mavjud bo‘lolmaydi. Har qanday ishlab

chiqarish, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy munosabatlar insonlar ongi darajasida mavjud bo‘ladi, deyish mumkin. Demak, bu jamiyatda moddiylik va ma’naviylikning o‘zaro munosabati muammosining to‘g‘ri yechimi bilan uzviydir. Jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy yangilanishi uning hayotida amal qilib kelgan falsafiy g‘oyalar, qarashlar, qadriyatlar va prinsiplarning o‘rnida yangicha yondashuv tufayli metodologik asoslarining o‘zgarishi falsafiy ongda ham yangilanishlarning amalga oshishiga sabab bo‘ldi.

Natijada:1) jamiyat hayoti va taraqqiyotiga qarashda “materialistik dialektika” prinsiplaridan voz kechildi;

2)“tarixni materialistik” tushunish g‘oyasining bir tomonlama va cheklanganligi e’tirof etildi;

3)“Turmush ijtimoiy turmush ijtimoiy hayotni belgilaydi” degan aqida o‘zgardi.

Chunki, jamiyat taraqqiyotiga bunday qarash, uning doimiy yangilanishi va rivojiga emas, aksincha, uning tobora turg‘unlashishiga, rivojlanish impulslaridan mahrum bo‘lishiga olib keldi. Raqobat muhiti yo‘qoldi. Yagona mulkchilik to‘g‘risidagi qarashlar falsafiy ongda ustuvor bo‘ldi. Moddiy ishlab chiqarish, iqtisodning roli mutlaqlashtirildi. Jamiyat ijtimoiy-ma’naviy hayoti rivojining falsafiy ong bilan aloqadorligi bo‘yicha ba’zi xulosalarni chiqarish mumkin.

Jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayoti bilan falsafiy ong o‘rtasida uzviy aloqadorlik qonuniyati amal qiladi. Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy rivojlanishga ma’naviy omilning ta’siri, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligiga alohida ahamiyat bera boshlandi. Bu moddiy va ma’naviy hayotning uyg‘unligi qonuniyatidir. Falsafiy ong va qarashlardagi o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarini xolisona to‘g‘ri anglash va baholashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
2. Nazarov Q. Falsafa asoslari. – Т: 2005.
3. Эркаев А. Маънавият ва миллий ғоя. - Т.: 2002.
4. Tulenov J., Tulenova G., Tulenova K. Falsafa. Darslik. –Т.: Fan va texnologiya, 2016.